

**Toshkent davlat transport universitetining talaba qizlar o'rtasidagi
"Transport malikasi" ko'rik-tanlovini o'tkazish
NIZOMI**

I. Umumiy qoidalar:

Toshkent davlat transport universitetining talaba qizlar o'rtasidagi **"Transport malikasi"** ko'rik-tanlovi universitetda tahsil olayotgan talaba qizlarning xohish istaklarini inobatga olgan holda, ilm fan sohasidagi yutuqlarini namoyon qilish, ularning jamiyatda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalaridagi vazifalarni hal qilishdagi faolligini kuchaytirish, huquq va manfaatlarini himoya qilish va ta'minlash, tadbirkorlik va kasbiy mahoratini oshirish, yoshlarni ma'naviy barkamol, g'oyaviy kurashchan, millat va davlatning taraqqiyoti yo'lida o'z kuchini ayamaydigan fidoiy insonlar qilib tarbiyalashda vatanparvarlik hissini uyg'otish hamda bu sohadagi tashabbuskor, faol jamoatchi talabalarni aniqlash, ularning ilmiy izlanishlari va innovasion texnologiyalarini keng targ'ib qilish maqsadida o'tkaziladi.

"Transport malikasi" ko'rik-tanlovi (keyingi o'rinlarda "Tanlov" deb yuritiladi) universitetimiz talaba-qizlarini umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida, yuksak odob-ahloq tamoyillari asosida tarbiyalash, ularning ongi va qalbini g'oyaviy tahdidlardan himoya qilish, kasbiy bilimlari va iqtidorlarini yuzaga chiqarish va ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan mamlakatimiz yoshlari ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amaliyotga tadbiiq etish hamda Toshkent davlat transport universitetida 2022-yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi ijrosini ta'minlash, xotin-qizlarni rag'batlantirish va ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida **"Transport malikasi"** ko'rik-tanlovini o'tkazish tartibini belgilaydi.

Tanlov O'zbekiston Respublikasi Yoshlar Ittifoqi Toshkent davlat transport universiteti boshlang'ich tashkiloti hamda universitet Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat Kengashi tomonidan iste'dodli talaba-qizlar o'rtasida bo'lib o'tadi.

II. Ko'rik-tanlovning asosiy maqsad va vazifalari:

Toshkent davlat transport universitetida tahsil olayotgan qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash;

Talabalar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, barcha axborot resurs markazlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish;

Ularni oilaviy hayotga tayyorlashda pazandalik sirlari, orastalik, halollik tamoyillari, oila jamiyat poydevori sifatida qarashlarini shakllantirish;

Xotin-qizlar o'rtasida ilm-ma'rifatni yuksaltirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, onalik va bolalikni ijtimoiy himoyalash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar mohiyatini yoshlar ongiga yetkazish;

Ona-Vatanga mehr-muhabbat, kelajakka ishonch, kasbga bo'lgan mehrini oshirish, yoshlar o'rtasida do'stlikni tarannum etish, ustozlarga ehtirom, burch va mas'uliyat tushunchalarini targ'ib etish;

Xotin-qizlarni muqaddas tariximiz, an'analarimiz va milliy urf-odatlarimizga chuqur hurmat va ehtirom ruhida tarbiyalash;

Yoshlarning bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanish, ular orasida ijodiy tashabbuskorlik va sog'lom raqobat ruhini shakllantirish.

III. Ko'rik-tanlov qoidalar:

Ishtirokchilarning tanlovga puxta tayyorgarlik ko'rganligi muhim ahamiyatga ega;

- Tanlov 4 ta ijtimoiy mavzudagi shartlardan iborat bo'ladi;

- Har bir shart uchun ajratilgan vaqtga e'tibor beriladi;

- Ishtirokchining kiyinishi, sahna va muomala madaniyati alohida e'tiborga olinadi;

- Hakamlar xay'ati har bir chiqishni belgilangan ballar asosida baholab boriladi;

Shartlarni bajarish vaqtida ishtirokchilarning yakka tartibda ishtirok etishiga hakamlar tomonidan alohida e'tibor beriladi.

IV. Ko'rik-tanlov shartlari:

1.	Tanishtiruv	Tanishtiruv sharti. Bunda har bitta ishtirokchi qiz o'zi haqidagi ma'lumot bilan tanishtiradi. (Ishtirokchi talaba - qizlar milliy matolardan zamonaviy uslubda tikilgan liboslarda, talaba-qizlarga xos soch turmaklarida bo'lishlari shart.) Bu shartga hakamlar talaba-qizlarning libosiga, soch turmaklariga ham baho beradilar. Har bir ishtirokchi uchun 1,5-2 daqiqadan vaqt ajratiladi. Har bir ishtirokchi o'zini (oilasi, ishi, qiziqishlari va h/klarni yakka tartibda) tanishtiradi.	5 daqiqa	10 ball
2.	Erkin mavzu	Ishtirokchilar mazkur shartda ixtiyoriy ravishda o'zlarining	5 daqiqa	10 ball

		qiziqishlari asosida she'r, ashula, raqs, monologlar, milliyligimiz aks etgan qo'shiq yoki raqs chiqishlari ijro etadilar. (Chiqishlar yakka yoki jamoaviy tartibda namoyish etilishi mumkin)		
3.	Pazandalik	Ishtirokchilar o'zlari bilan olib kelgan meva va sabzavotlar uyg'unligida yasalgan san'at asarini namoyish qiladilar va unga ta'rif berishlari talab qilinadi.	10 daqiqa	10 ball
4.	Taraqqiyot strategiyasi	2022-2026 yillarga mo'jallangan Taraqqiyot strategiyasini bo'yicha bilimlari baholanadi.	10 daqiqa	10 ball

IZOH:

- har bir ishtirokchi berilgan vaqtga qat'iy rioya qilishi shart;
- sahna madaniyati va tartib intizom, ozodalikka rioya qilmagan ishtirokchining ballari kamaytiriladi.

Tanlov majburiyatlari:

G'oliblarni aniqlash, ularni taqdirlash "Talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi" tomonidan amalga oshiriladi;

Ko'rik-tanlov Toshkent davlat transport universiteti rasmiy ijtimoiy tarmoqlari orqali yoritib boriladi.

Hakamlar xay'ati:

Hakamlar xay'ati ishtirokchilarning chiqishlarini va savodxonligini adolatli baholaydi, ishtirokchilarning olgan baholarini umumlashtirgan holda ko'rik-tanlov g'olibini aniqlab beradi.

Hakamlar xay'ati a'zolarining xulosalari qaror bilan rasmiylashtiriladi. Ishtirokchilarning faoliyatini baholashda har bir hakam alohida o'z ballarini qo'yadi va ballar qo'shiladi, o'rtacha ball chiqarilib, natijasi e'lon qiladi.

Hakamlar xay'ati ishtirokchilarning chiqishlarini va savodxonligini adolatli baholaydi, ishtirokchilarning olgan baholarini umumlashtirgan holda ko'rik-tanlov g'olibini aniqlab beradi.

Hakamlar xay'ati a'zolarining xulosalari qaror bilan rasmiylashtiriladi. Ishtirokchilarning faoliyatini baholashda har bir hakam alohida o'z ballarini qo'yadi va ballar qo'shiladi, o'rtacha ball chiqarilib, natijasi e'lon qiladi.

V. Taqdirlash:

Tanlov yakunida eng yuqori ball to'plagan uch nafar talabalar universitet tomonidan quyidagicha pul mablag'i bilan taqdirlanishadi:

- 1-o'rinni bazaviy stipendiyaning 2 barobari
- 2-o'rinni bazaviy stipendiyaning 1.5 barobari
- 3-o'rinni bazaviy stipendiyaning 1 barobari

Nominatsiyalar:

1. Eng namunali ishtirokchi talaba;
2. Eng tashabbuskor ishtirokchi;
3. Eng kreativ ishtirokchi;
4. Eng mohir qo‘l ishtirokchi talaba;
5. Eng faol talaba;
6. Taraqqiyotning eng yorqin talabasi.

Shuningdek, naminastsiya g‘oliblari maxsus diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

**Toshkent davlat transport universiteti talaba -qizlari o'rtasida
o'tkaziladigan "Zakovat" intellektual o'yini
N I Z O M I**

I. O'yinning maqsadi va vazifalari

1.1. O'yinning asosiy maqsadi – talaba qizlarining intellektual salohiyatni hamda ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini yanada oshirish, hamda yoshlarga hozirgi shiddat bilan taraqqiy etayotgan zamonda nafaqat tarixiy, balki dunyoviy, falsafiy va zamonaviy bilimlarni puxta egallashi, doimo o'qishi va izlanishi kerakligini uqtirish, shuningdek talabalarga mamlakatimiz – iste'dodlar, jahon ilm-fani, madaniyati va san'atiga bebaho hissa qo'shgan buyuk ajdodlar yurti ekanligini va ana shunday ajdodlarimiz qoldirgan o'lmas me'rosini o'rganish, ularga munosib barkamol farzandlar bo'lib yetishish bizning asosiy vazifamiz ekanligini yana bir bor ta'kidlashdan iborat.

II. O'yinni o'tkazish tartibi va muddati

2.1 O'yinni yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazishga universitet Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi va ishchi guruh mas'uldirlar.

2.2 O'yinda barcha fakultetlarning talaba qizlaridan tuzilgan jamoalar qatnashish huquqiga ega.

2.3. Ishchi guruh tarkibi universitet rektori tomonidan tasdiqlanadi va jamoalar (talabalar)ni o'yinda baholab boruvchi Ekspert Hay'ati a'zolari ishchi guruh a'zolari tomonidan tuziladi.

2.4. O'yin Ekspert Hay'ati 3(uch) nafar a'zodan iborat tarkibda tuzilishi tavsiya etiladi.

2.5. Birinchi bosqichda barcha jamoalarga bir xil ya'ni, jami 8 ta savollar beriladi. Bu savollarning har biriga o'ylash uchun 1 daqiqadan vaqt beriladi. Har bir savolga berilgan to'g'ri javob Ekspert Hay'ati tomonidan o'yin davomida baholab boriladi. Har bir savolga berilgan to'g'ri javob uchun maksimal 1 (bir) ball, topilmagan javob uchun minimal 0 (nol) ball beriladi.

2.6. Birinchi bosqich tugagandan so'ng 5 daqiqa tanaffus e'lon qilinadi va tanaffus vaqtida jamoa sardoriga bir nafar jamoa a'zosini almashtirishga imkoniyat beriladi.

2.7. Ikkinchi bosqichda ham barcha jamoalarga bir xil ya'ni, jami 7 ta savollar beriladi. Bu savollarning har biriga o'ylash uchun 1 daqiqadan vaqt beriladi. Har bir savolga berilgan to'g'ri javob uchun maksimal 1(bir) ball, topilmagan javob uchun minimal 0(nol) ball beriladi.

2.8. Agarda jamoalar bir xil ball to'plagan bo'lsa, qo'shimcha uchinchi bosqichda bir xil ball to'plagan jamoalarga qo'shimcha savollar beriladi va birinchi bo'lib to'g'ri javob bergan jamoa g'olib deb topiladi.

2.9. Jamoalarning o'yin davomida bergan javoblari yuzasidan bo'ladigan e'tirozlari va shikoyatlarini o'yindan so'ng Ekspert Hay'atiga yozma ravishda yoki og'zaki berishlari mumkin. E'tirozlar va shikoyatlar Ekspert Hay'ati tomonidan tahlil qilinadi.

III. O'yin shartlari

3.1. Jamoa tarkibi 6 kishidan iborat bo'lishi va 1 ta o'yinchi zahirada bo'lishi shart.

3.2. Boshlovchi savolni o'qigandan so'nggina muhokama boshlanib, 1 daqiqa ichida javob yozma ravishda Ekspert Hay'atiga topshirilishi shart, aks holda javob qabul qilinmaydi.

3.3. O'yin vaqtida turish, telefondan foydalanish va ishtirokchini almashtirish taqiqlanadi.

3.4. O'yin qoidalarini buzgan jamoa o'yindan chetlashtiriladi.

IV. O'yin natijalari bo'yicha qaror qabul qilish va ularni rasmiylashtirish

4.1. O'yin yakuniy qarori o'yin tugagandan so'ng e'lon qilinadi. Qabul qilingan yakuniy qarorga ko'ra tanlov g'oliblariga birinchi, ikkinchi va uchinchi o'rinlar beriladi.

V. O'yinda g'olib jamoalarni taqdirlash

Tanlov yakunida eng yuqori ball to'plagan uch nafar talabalar universitet tomonidan quyidagicha pul mablag'i bilan taqdirlanishadi:

1-o'rinni bazaviy stipendiyaning 1 barobari

2-o'rinni bazaviy stipendiyaning 0.75 barobari

3-o'rinni bazaviy stipendiyaning 0.5 barobari

G'olib bo'lgan jamoalar universitetning I, II va III darajali diplomlari va Faxriy yorliqlar hamda belgilangan miqdordagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

**Toshkent davlat transport universitetida “Unitilmas satrlar” bahr-u bayt
tanlovini o'tkazish
NIZOMI**

I. Umumiy qoidalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 2020 – 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi, hamda 2020 – 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 502-son Qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etiladi.

2. “Kitobxonlik” mavzusida atoqli shoir yozuvchilarning hayoti va ijodini o'rganish hamda targ'ib qilishda universitet talabalarining ishtirok etishlarini ta'minlash bilan M.Shayxzoda ijodini, she'riyatini ommalashtirish.

3. Tanlovning tashkil etish va o'tkazish jarayoni universitet Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor tomonidan amalga oshiriladi.

II. Tanlovning maqsad va vazifalari

4. Tanlovning maqsadi – she'rxonlik, bahr-u bayt madaniyatini rivojlantirish orqali faol kitobxon talabalar safini kengaytirish, hamda yosh avlodning dunyoqarashini rivojlantirish, salohiyatini oshirishdan iborat.

III. Ko'rik-tanlovni tashkil etish va o'tkazish

5. “Unitilmas satrlar” bahr-u bayt tanlovida universitetning barcha bosqich talabalari ishtirok etishlari mumkin.

6. Ko'rik-tanlovda ishtirok etishni xohlagan talabalar universitetning rasmiy sahifalari orali ro'yxatdan o'tishlari lozim bo'ladi.

7. Tanlov ochiq-hakamlar ishtirokida o'tadi.

8. Tanlov ishtirokchilariga qo'yilgan ballar teng kelib qolganda, qo'shimcha savollar o'ynaladi va yakuniy g'olib aniqlanadi.

9. Ko'rik-tanlovning yakuniy natijalari Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor tomonidan rasmiylashtiriladi.

IV. Tanlov shartlari va baholash mezonlari

10. Bahr-u bayt tanlovida quyidagi mezonlarda baholanadi:

a) satrlarni to'liq va aniq yo'llash;

- b) berilgan vaqtdan kechga qolmagan holatda javob qaytarish;
 - c) tahrirlangan javoblar inobatga olinmaydi;
 - d) Savol yo'llangan vaqtdan kechikib berilgan javobning har bir daqiqasi uchun maksimal balldan 0.1 ball olib tashlanadi;
11. Yuqoridagi talablarni qanoatlantirmaydigan javoblar satrlar qilinmaydi.
13. Tanlovni o'tkazish jarayoni va natijalari universitetning rasmiy sahifalarida yoritiladi.

V. Tanlovning g'oliblarini taqdirlash

14. Tanlov yakunida eng yuqori ball to'plagan uch nafar talabalar universitet tomonidan taqdirlanishadi:

- 1-o'rin – 600.000 (olti yuz ming) so'm;
- 2-o'rin – 400.000 (to'rt yuz ming) so'm;
- 3-o'rin – 200.000 (ikki yuz ming) so'm.

VI. Yakuniy qoidalar

15. Tanlov ishtirokchisi tomonidan tanlovni tashkil etish va o'tkazish hamda uning natijasi bilan bog'liq murojaat (e'tiroz)lar qabul qilinmaydi.

**“Milliy libosga go‘zal iqtibos” mavzusida talaba-qizlar o‘rtasida
onlayn-fototanlov
NIZOMI**

I. Umumiy qoidalar

1. “Milliy libosga go‘zal iqtibos” talaba-qizlar o‘rtasida onlayn-fototanlovda universitetda tahsil olayotgan talaba-qizlar o‘zlarining ijodiy ishlari bilan ishtirok etadi.
2. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish jarayoni Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor tomonidan amalga oshiriladi.

II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

3. Tanlovning asosiy maqsadi universitetda 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kunini munosib nishonlash, shuningdek, tanlovda talaba-qizlar o‘zlarining olgan fotosuratlar bilan ishtirok etib, milliy liboslarimizning go‘zalligi, nafosat olami ya’ni chiroyi, rang tasvir bilan ajralib turishi, milliy liboslar haqidagi katta taassurotni inobatga olib o‘z tengdoshlariga targ‘ib qilish, shuningdek, o‘zbekona kiyinish madaniyatini targ‘ib qilish, zamonaviy kiyinishda o‘zbekona sharm-hayo me’yorlariga amal qilish, milliy an’analarimizni keng targ‘ib qilish orqali urf-odat va qadriyatlarimizga xos bo‘lmagan kiyinish uslublariga taqlidning oldini olish, yoshlarda milliy kiyinish madaniyatini shakllantirish, universitetda kiyinish odobi va me’yorlariga rioya qilishdan iborat. Xususan, yosh ijodkor talabalarni qo‘llab-quvvatlash orqali ularni ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlarini yanada ko‘paytirib, o‘z iqtidorini yuzaga chiqarish uchun shart sharoitlar yaratib berish va rag‘batlantirishdan iborat.

III. Tanlovni o‘tkazish muddati

4. “Milliy libosga go‘zal iqtibos” talaba-qizlar o‘rtasida onlayn-fototanlovda ijodiy ishlar 2022-yil 21-fevraldan 4-martga qadar qabul qilinadi. Suratlar universitet ijtimoiy tarmog‘idagi telegram kanalida (https://t.me/tstu_online) joylab boriladi.

IV. Tanlov shartlari

5. Tanlovga taqdim etilgan fotosuratlar quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:
 - tanlov mavzusining mazmun-mohiyati to‘laqonli ochib berilganligi;
 - foto janrlarining to‘g‘ri tanlanganligi;
 - janr xususiyati o‘zida aks ettirilganligi;

- fotosuratning axborotlilik darajasi;
- fotosuratning o'ziga xoslik, obrazlilik, hissiylik, ifodaviylik darajasi, surat olish mahorati.

6. Suratga olish jarayonida turli innovatsion texnikadan foydalanish mumkin.

7. Olingan suratga qaytadan ishlov berish (photoshop) mumkin emas.

8. Faqat muallifning o'zi suratga tushirgan bo'lishi kerak (internetdan olib yuborilgan emas).

9. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan ijodiy ishlar qabul qilinmaydi. Mualliflik huquqi buzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

10. 4-mart kuni eng ko'p "like" yig'gan ijodiy ish muallifi aniqlanadi.

V. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

10. Tanlovda 1-, 2-, 3-o'rinlarni egallagan talabalar universitet tomonidan maxsus diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanadi.